

## Qiziqarli astronomik hodisa: qisman Quyosh tutilishi kuzatildi

Bugun, 25-oktabr kuni Yer yuzi aholisi qiziqarli astronomik hodisalardan biri – qisman Quyosh tutilishini kuzatdi.

Jumladan, yurtimiz aholisi 2 soatdan ko'proq vaqt mobaynida Quyosh tutilishining guvohi bo'lishdi. Oldin xabar berganimizdek, yurtimizning deyarli barcha hudularida Quyosh tutilishini kuzatish imkoniyati mavjud bo'ldi. Tutilish o'rtacha hisobda soat 15:20 dan 17:30 oralig'ida sodir bo'ldi. O'zbekistonda tutilishning maksimal fazasizda Quyosh yuzasining 68% Oy tomonidan to'sildi.



*Quyosh tutilishi Nukus shahrida (Karinform saytidan olindi).*

Yurtimizning ko'pchilik hududlarida noqulay ob-havo hukm surganiga qaramasdan, ayrim hududlar Quyosh tutilishining maksimal fazasini kuzatishga muvaffaq bo'lishdi. Yurtimizning Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi va Surxandaryo viloyati aholisi Quyosh tutilishini kuzatishdi.



*Quyosh tutilishi Nukus shahrida (Karinform saytidan olindi).*



*Quyosh tutilishi Nukus shahridagi Toshkent mehmonxonasi fonida (Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi).*